

Azerbayjon diplomatiya akademiyasi vakilining institutimizga tashrifi

Azerbayjon diplomatiya akademiyasi (ADA) talabalarni qabul qilish bo'limi menejeri Aytekin Guseynova va Geydar Aliev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi boshlig'i Yusuf Mamedov institutimizga tashrif buyurdi. "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti dekani R. Xakimov mehmonlarni tanishtirish bilan uchrashuvni ochib berishdi. A.Guseynova Azerbayjon iqlimi, geografiyasi, aholisi va madaniyati haqida so'zlab berdi. So'ngra Aytekin ADA universiteti haqida 10 minutli videorolikni talabalarga qo'yib berishdi. Magistratura va doktoranturada grant asosida o'qish imkoniyatlari xususida keng qamrovli ma'lumot taqdim etildi. Talabalarda Azarbayjonda tahsil olish imkoniyati haqida turli ko'rinishdagi savol-javoblar qizg'in tus oldi. Barcha savollarga to'liq va batafsil ma'lumot berildi. Uchrashuv so'nggida mehmon A.Guseynovaga institut nomidan esdalik sovg'alari berildi.



TIQXMMI matbuot xizmati